

TALABALARDA TA'LIM JARAYONIDA EKOLOGIK QADRIYATLARGA YANGICHA YONDOSHUVNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Oripov Elyorjon Shavkatovich

Qo'qon DPI katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada talablar onggi va qalbida ekologik qadriyatlarga yo'naltirilgan irodani shakllantirishda ta'lim jarayonining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda ekologik qadriyatlarning qadrsizlanish sabablari ilmiy manbalar asosida nazariy-metodologik jihatdan tadqiq qilingan.

Kalit soz'lar: Oliy ta'lim, qadriyat, ekologik qadriyat, "BioScience" jurnali, V.I.Vernadskiy, K.E.Siolkovskiy, Ibrohim Karimov, noosfera

Tasavvur qilib ko'rganmisiz, 20 yildan so'ng dunyo manzarasi qanday bo'ladi? Insoniyatning hayot kechirish tarzi qay tarzda o'zgarishi mumkinligi haqida-chi? Hozirgi an'analarimiz qay darajada o'zgarishi mumkin deb hisoblaysiz? Shunisi aniqki, yer sharining ekologik vaziyati o'tgan asrga nisbatan misli ko'rilmagan darajada o'zgarishga ulgirishi bilan bir qatorda avlodlarning chinakamiga tanazzuliga sabab bo'luvchi muammolarni ham vujudga keltirdi.

Dunyo bo'yicha 184 davlatdan bo'lgan 15 mingdan ortiq olimlarning "Insoniyatga ikkinchi ogohlantirish"i "BioScience" jurnalida e'lon qilindi[1]. Ushbu ilmiy maqolada ta'kidlanishicha, ozon tuynuklarining paydo bo'lishi, suv va havoning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, tuproqning oriqlanishi hamda insoniyatning atrof-muhitga aralashuvi – yerda bioterrorizmni vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Olimlarning fikricha, yerdagi ifloslanish - chekish sabab yuz beradigan o'lim miqdoridan bir yarim barobarga, OITS, sil va bezgakdan uch martaga, urushlar hamda zo'ravonliklardan 15 baravarga yuqori ekan.

Ushbu ekologik tanglikning kelib chiqish sabablari avvalo, ITI yutuqlari shaxsiy, guruhiy manfaatlarga bo'ysundirilishi oqibatida aql-idrok ikkilamchi mohiyatga aylanib qoldi, qolaversa, inson-jamiyat tizimidagi o'zaro ma'naviy munosabatlar tabiatga nisbatan qo'llanilmadi. "Hozir tabiatning o'zi bizga ishorat bermoqda – o'z haqimizda qayg'urish uchun, avvalo, tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak"[2]. Insoniyat tomonidan tabiat qonunlarini qadrsizlanishi ekologik tanazzulni rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

Hozirgi vaziyat ekologik qadriyatlarning yangicha falsafiy asoslarini shakllantirishni muqarrar masala sifatida qo'ymoqda. Shu ma'noda, V.I.Vernadskiy, K.E.Siolkovskiy kabi olimlarning nazariyalari inson-jamiyat-tabiat tizimidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Ular yerdagi hayotni kosmik nurlanish hosilasi sifatida e'tirof etib, inson va tabiat mutanosibligiga erishish tabiiy taraqqiyotni barqaror saqlab qolish omili ekanligini ta'kidlashgan. V.I.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasi mohiyati: "tabiatni inson manfaatlarini hisobga olgan holda o'zgartirish, undagi muvozanat holati insoniyatning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati orqali saqlanib turadi, bular – inson tomonidan ongli ravishda yaratiladigan tabiiy muhit holatidir"[3]. Ushbu g'oyalar moddiy kuchga aylanishi uchun tabiatni maqsadli va qadriyatli anglash yo'lida umumplanetar ilmiy tafakkurni rivojlantirish zarur.

Professor Ibrohim Karimov: "Noosfera tantanasiga ishonch ruhini inson ongiga singdirish, uni ob'ektiv ruhning yetakchi g'oyasiga aylantirish bag'oyat dolzarb bo'lib turibdi. Olimlarning yakdil bo'lib ta'kidlashlaricha, endilikda biosferaning taqdiri Noosfera – Aql sohasi qanday yo'nalish olishiga bog'liqdir"[4]. Noosfera davri insoniyatdan inson-jamiyat-tabiat tizimida yuzaga keladigan barcha narsa va hodisalar faoliyat yo'nalishini faqat aql-idrokka tayanib belgilashni taqozo etadi. Bizningcha, noosfera



nazariyasi ayni paytda ekologik qadriyatlarning yangi tizimini shakllantirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'ladi. Bugun tabiat bilan bog'liq muammolarning ortib borayotgani, uning inson va jamiyat oldidagi qadrini yanada oshirmoqda. Tabiatni qadriyat sifatida anglash - inson va jamiyatni o'z-o'zini qadrlash bilan barobardir. Ushbu tendensiyani umumplanetar ongda qaror toptirish orqali inson ma'naviy borlig'i bilan bog'liq qadriyatlar tizimida tabiat "yashash vositasi" sifatida emas, balki umumbashariyat orzu-maqsadlariga eltuvchi "makon" ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda ekologik muammolarni oldini olishda "2019-2028 yillarda O'zbekistonda biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi" ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Unga ko'ra:

- biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish;
- ekologik tizimlarni muhofaza qilish;
- ozik-ovqat xavfsizligini ta'minlash;

Globalashuv jarayonida yoshlar mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta'lim tizimi va oiladagi muammolar hamda ularning yechimlari

- aholi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakat barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun 2030 yilgacha Milliy strategik maqsadlarni belgilash ustuvor vazifa sifatida qo'yildi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan 2021 yil 31 dekabrda «Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini qabul qilinishi ijtimoiy ongda ekologik qadriyatlarni shakllanishida muhim qadam bo'ldi. Hujjatga muvofiq, Davlat ekologiya qo'mitasiga 2022 yil 1 dekabrga qadar Ekologik kodeks loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi yuklatildi.

Ushbu islohotlar xalqimiz tafakkurida yangicha ekologik madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyat bir nechta faktorlar natijasi o'laroq shakllanadi yoxud yuzaga keladi: jumladan, tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar, ko'nikmalar, ekologik tarbiya, qadriyat va an'analar ekologik madaniyat shakllanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bugungi global ekologik muammolar insoniyatni bir bo'g'ma ilondek qamrab olgan paytda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish va ularda atrof-muhitga nisbatan ratsional yondashuv ko'nikmasini hosil qilish masalasi ulkan ahamiyat kasb eta boshladi deb hisoblash o'rinlidir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda talabalarga ta'lim jarayonida insoniyat qarshisida yuzaga kelgan muammolarni hal etishda qadriyat va an'analarni o'rgatish, ularga tabiatga muhabbatni an'anaviy qadriyat darajasiga ko'tarish zarur. Bu harakatlar vositasida Ona tabiatni bundanda yomon oqibatlaridan saqlab qolish mumkin. Hozirgi vaziyat voqelikdagi ekologik muhitni sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan yangicha ekologik qadriyatlar tizimining falsafiy asoslarini shakllantirishni muqarrar masala sifatida qo'ymoqda. Tabiatni muhofaza etishga yo'naltirilgan yangicha qadriyatlarni shakllanishida eng muhim omil ushbu sohada ajdodlarimiz asrlar davomida hurmat qilib, o'z turmush-tarzining tarkibiy qismiga aylantirgan an'ana va urf-odatlar bo'lishi mumkin, ulardan bugungi kun amaliyotida o'rinli foydalanish inson-jamiyat-tabiat tizimidagi qarama-qarshiliklarni bartarf etishga imkon beradi.

O'tgan asr insoniyatga juda ko'p imkoniyatlar berdi. Biz ushbu imkoniyatlarni sub'ektivlashtirib yadroviy qurollanish hamda atrof-muhitni ifloslantirishga almashtirdik. Xususan "inson tabiat qonunlari ijodkori" degan tamoyil bugun o'z umrini yashab bo'lgani, bugungi tamaddun moddiy shakldan ma'naviy shaklga o'tishi zaruruati yetilganini talabalar ongi va tafakkurida shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Bugungi ekologik bo'hronlar tabiatda tiklab bo'lmas fojialarni yuzaga chiqarmoqda, ular insoniyat orzu-umidlarini cheklaydi, ekologik qadriyatlar esa kundan-kunga ekzistensial mazmunga ega bo'lib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://scientists.forestry.oregonstate.edu/sites/sw/files/Ripple_et_al_warning_2017.pdf
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022. – 313 bet
3. Vernadskiy V.I. Biosfera i noosfera / V.I. Vernadskiy. – M.: 2009. s. 400.
4. Ibrohim Karimov. Ma'naviyat, falsafa va hayot. T.: FAN. 2007. B. 199.

